“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Axborot texnologiyalarini sud tizimiga joriy etish va iqtisodiy nizolarni hal etishdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar

Karomatjon Davletova,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: k.davletova@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada iqtisodiy sud ishlariga axborot texnologiyalarini samarali tatbiq etishning huquqiy asoslari, inson omilining ta’siri, elektron dalillarni baholash mexanizmi va sun’iy intellektdan foydalanish chegaralari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Калит сўзлар. iqtisodiy sud, sudya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, videokonferensaloqa, ochiqlik, shaffoflik, raqamlashtirish

Аннотация. В данной статье представлены размышления о правовых основах эффективного внедрения информационных технологий в экономических судебных процессах, влиянии человеческого фактора, механизме оценки электронных доказательств и границах использования искусственного интеллекта.

Ключевые слова. экономический суд, судья, информационно-коммуникационные технологии, видеоконференцсвязь, открытость, прозрачность, цифровизация

Annotation. This article presents reflections on the legal foundations for the effective implementation of information technologies in economic court proceedings, the impact of the human factor, the mechanism for evaluating electronic evidence, and the limits of using artificial intelligence

Keywords. economic court, judge, information and communication technologies, video conferencing, openness, transparency, digitalization

Dunyoda XXI asrda axborot texnologiyalarining barcha sohalarga, jumladan, sud-huquq tizimiga ham kirib kelishi raqamlashtirishni huquqni muhofaza qilish sohasining strategik yo‘nalishiga aylantirdi. Ayniqsa, iqtisodiy nizolarni ko‘rib chiqish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorlik,

tezkorlik, shaffoflik va korrupsiya xavfini kamaytirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksi (UN E-Government Development Index)da O‘zbekiston 193 davlat orasida 63-o‘ringa ko‘tarilib, birinchi marta “juda yuqori” (EGDI) toifasiga kirgani ham mamlakatimizda axborot texnologiyalarini sud tizimiga joriy etish va iqtisodiy nizolarni hal etishdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, sud ishlarini yuritishda sun’iy intellekt, elektron hujjat aylanishi, onlayn sud muhokamalari, blokcheyn va sud ishlarini avtomatlashtirilgan taqsimlash kabi yechimlar iqtisodiy sudlovni zamonaviy standartlar asosida qayta tashkil etishda muhim omilga aylangan. Iqtisodiy sudlarda raqamlashtirish va axborot texnologiyalardan foydalanish orqali korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari hamda mexanizmlarini takomillashtirish kabi tendensiyalar rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonda ham sud-huquq sohasini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, amaldagi my.sud.uz platformasi, masofaviy sud muhokamalari va avtomatlashtirilgan taqsimlash kabi innovatsion mexanizmlar tatbiq etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof- asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni va “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarni bosqichma-bosqich to‘liq elektron shaklda yuritish amaliyoti joriy qilinmoqda[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarorida mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalardan biri sifatida sohaga oid normativ-huquqiy bazani shakllantirish, standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash nazarda tutilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [3] bilan sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatini tanqidiy o‘rganish hamda sud tizimi faoliyati samaradorligini va aholining odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan axborot tizimlari va resurslarini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar Dasturini tasdiqlash vazifasi belgilandi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni [4] qabul qilinishi ushbu islohotlarni yangi bosqichga ko‘tardi, desak

mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Harakatlar strategiyasining ikkinchi – qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning oltita ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ulardan birinchisi – sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishdir. Ushbu yo‘nalishda belgilangan chora-tadbirlar majmuidan biri sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘ldi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 65-bandida sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, xususan: sudyalar o‘rtasida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash tartibini joriy qilish; sudlarda o‘z vaqtida elektron tarzda axborot almashuvini ta’minlovchi korporativ aloqani joriy etish, sud faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimini kiritish; sud qarorlarining axborot-huquqiy elektron bazasini yuritish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan barcha sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilish (yopiq sud jarayonida ko‘rib chiqilganlaridan tashqari) kabi chora-tadbirlar belgilangan. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu yangiliklar shubhasiz fuqarolarning huquq va erkinliklari, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu borada qonuniylikni ta’minlash, odil sudlovning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish, sudlar va boshqa idoralar o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentyabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [5].

Sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqi amalga oshirilishini, shuningdek, sudlar tomonidan mazkur masalaga oid qonun hujjatlari bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida 2020-yil 21-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur Plenum qarori sud muhokamasi oshkoraligi, sudlar faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikka o‘z vaqtida va obyektiv axborot berish jamiyatda huquqiy xabardorlik darajasi oshishiga imkon yaratishi, odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanishi, sudlov faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash va sudga nisbatan jamiyat ishonchini oshirishning samarali vositasi hisoblanishi, shu munosabat bilan sudlar sud muhokamasi oshkoraligi va sudlar faoliyatiga doir axborotni olish huquqini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishlari lozimligi haqida tushuntirishdan boshlagan (Qarorning 1-bandi) [6].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish, sudlar va boshqa idoralar o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yaxshilash maqsadida 2020-yil 3-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishning quyidagi vazifalari belgilandi:

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, har bir murojaatni ko‘rib chiqish jarayonining onlayn kuzatib borilishini ta’minlash, sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish;

sudlarda odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta’minlash uchun vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan elektron ma’lumotlar almashinuvini yanada kengaytirish;

maxsus axborot dasturlarini joriy etish orqali sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash;

sud majlislarida masofadan turib, jumladan mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek ish bo‘yicha taraflar uchun sud qarorlarini onlayn tarzda olish imkoniyatini yaratish;

sudning axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlari axborot va kiberxavfsizligini ta’minlash, xizmat axborotlari va ma’lumotlarini kompleks himoya qilish bo‘yicha choralarni kuchaytirish [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan 2020–2023-yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi. Dasturda 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo‘yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish; 2021-yil 1-iyuldan boshlab apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarida ishlarni sudyalar o‘rtasida avtomatik ravishda taqsimlash; 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqti va joyi haqida “SMS” xabar orqali bepul asosda xabardor qilish; 2022-yil 1-yanvardan boshlab sud qarorlarini ish bo‘yicha taraflarga onlayn tarzda, ularning iltimosnomasi bo‘yicha esa qog‘oz shaklida taqdim etish; 2022-yil 1-iyulga qadar sud hokimiyati organlari faoliyatida, shu jumladan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga odil sudlovga erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish; 2023-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish; sudlar, Sudyalar oliy kengashi hamda Sudyalar oliy maktabida axborot-kommunikatsiya texnologiya-lari infratuzilmasini yanada yaxshilash nazarda tutildi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son farmoni bilan tasdiqlangan “2023 – 2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi”da sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma’lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, Strategiyaning 3.7.-bandida sudlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash nazarda tutilgan bo‘lib, unda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish; sudlar faoliyatiga fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish, sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va sud qarorlarini tahlil qilish yo‘nalishida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha choralar ko‘rish kabi chora-tadbirlar nazarda tutildi [7].

O‘zbekistonda sudlar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning retrospektiv tahlili va huquqiy asoslarini o‘rganish natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur jarayon bosqichma-bosqich, tizimli va islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda sud hokimiyati faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida elektron axborot tizimlari, videokonferensaloqa va sud jarayonlarining raqamlashtirilishi joriy etildi.

Xususan, “Elektron sud”, “Ishonchli himoya”, “E-Sud” axborot tizimlari kabi loyihalarning joriy qilinishi, jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar uchun qulaylik yaratib, murojaat qilish, hujjatlar almashish, masofadan ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, iqtisodiy sudlar amaliyotida ham videokonferensaloqa vositasidan foydalanish, elektron dalillarni qabul qilish va tahlil qilish amaliyoti bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

O‘zbekistonda sud faoliyatini raqamlashtirish jarayoni milliy qonunchilikka va xalqaro huquqiy standartlarga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sud ish yurituvining tezkorligi, shaffofligi va fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqini amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning asosiy vazifalari sifatida sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, ish yuritish sifati va samaradorligini oshirish, ishlarning o‘z vaqtida ko‘rilishini nazorat qilish mexanizmini yaratish, sudlar faoliyati to‘g‘risidagi axborot ochiqligini, shuningdek, aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar ro‘yxati kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilanishini

ta’minlaydigan axborot tizimini takomillashtirish; aholining odil sudlovdan xabardorlik darajasini shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalari va internet orqali tushuntirish ishlarini kuchaytirish, sudyalar va sud xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etishni belgilanishi odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirib, sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo‘lar edi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni. // https://lex.uz/ru/docs/7369703.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori. https://www.lex.uz/docs/7158604.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // .

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. .

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentyabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori..

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 21-fevraldagi “Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta’minlash to‘g‘risida”gi 04-sonli qarori. // .

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni. // .